

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligi direktori o‘rinbosari



Z. Ziyayev

2024-y. “28” iyun

INTERAKTIV XIZMATNING REGLAMENTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGINING RASMIY VEB-SAYTINING “FOYDALI MA’LUMOTLAR” BO‘LIMIDA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARUVCHILAR RO‘YXATIDAN FOYDALANISH INTERAKTIV XIZMATINI TAQDIM ETILISHI.

1. Xizmatning ta’rifi (pasport)

1.1. Xizmat nomi

Statistika agentligining rasmiy veb-saytining “FOYDALI MA’LUMOTLAR” bo‘limida Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar ro‘yxatidan foydalanish interaktiv xizmatini taqdim etilishi.

1.2. Xizmat natijasi

Muayyan davrlar uchun O‘zbekiston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining mahsulot turlari bo‘yicha ro‘yxati haqida axborot.

1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarni olish joylari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy veb-sayti.

1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori.

1.4.Xizmat qabul qiluvchilari

Manfaatdor davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar.

1.5. So‘rov berish muddatlari

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

1.6. Bajarilish muddati

Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy veb-saytiga, murojaat qilinganda – onlayn rejimda.

1.7. Tasdiq berilish muddati

O'rnatilmagan.

2. Xizmat qabul qiluvchilarini habardor qilish

2.1. Axborot tarkibi va hajmi

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash:

- Ko'mir va lignit qazib olish;
- Xom neft va tabiiy gaz qazib olish;
- Metall rudalarini qazib olish;
- Tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat;
- Tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar;

Qayta ishlash sanoati:

- Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Ichimliklar ishlab chiqarish;
- Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Kiyim ishlab chiqarish;
- Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish;
- Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish;
- Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish;
- Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish;
- Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Metallurgiya sanoati;
- Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish;
- Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Elektr uskunalar ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish;
- Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish;
- Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish;
- Mebel ishlab chiqarish;
- Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish;
- Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish;

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash:

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish:

- Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash;
- Kanalizatsiya tizimi;
- Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish;
- Tiklash va chiqindilarni yo'qotish sohasidagi boshqa xizmatlar;

2.2. Katta miqyosda xabardor qilish

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining mahsulot turlari bo'yicha ro'yxati Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytining "FOYDALI MA'LUMOTLAR" bo'limida Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar ro'yxati e'lon qilib boriladi.

2.3. So'rov bo'yicha xabardor qilish

Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo'yicha har qanday savol yuzasidan og'zaki konsultatsiya (10 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 202-80-49.

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat bo'yicha har qanday katta xajmdagi aniq axborot berilishini talab qilmaydigan savol yuzasidan og'zaki konsultatsiya (5 daqiqadan ortiqmas). Murojaat uchun telefon raqami: (71) 202-80-47.

Elektron pochta orqali: onlayn rejimda info@stat.uz elektron pochta-siga yozma so'rovlarni keng tarqalgan matn formatlarida (oddiy matn, birlashtirilgan fayl DOC, RTF, PDF) yoki kelishilgan boshqa formatlarda qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha yozma hujjatlarni odiy matn formatida, birlashtirilgan fayl DOC, RTF, PDF formatida yoki kelishilgan boshqa formatlarda uzatish.

Statistika agentligi rasmiy saytiga shaxsiy murojaat – onlayn rejimda.

2.4. Xizmat ko'rsatish joyi haqida xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, 100192, Mustaqillik shoh ko'chasi 63.

2.5. Foydalaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)

Tasdiqlangan va o'rnatilgan tartibdagi jadval namunalari.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytiga murojaat;
Ish tartibi: onlayn rejimda.

3.2. Kutish shartlari

Xizmat onlayn rejimda ko'rsatiladi.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Shart bo'lgan hujjatlar

Talab etilmaydi.

4.2. Xizmat haqi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatilish bosqichlari

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining mahsulot turlari bo'yicha ro'yxati haqida axborot olish uchun, www.stat.uz saytiga kirish lozim. Saytning quyi qismidagi "FOYDALI MA'LUMOTLAR" bo'limida "Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar"ni tanlash kerak. Qiziqtirayotgan sanoat statistikasi sohasi tanlanadi.

4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar

1. Har yil yakuni asosida Sanoat statistikasi bo'yicha statistik hisobotlar qamrovini tashkil etish;
2. Hisobot davri uchun Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining mahsulot turlari bo'yicha ro'yxatini shakllantirish;
3. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining mahsulot turlari bo'yicha ro'yxatini Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida e'lon qilish.

O'rnatilmagan.

4.5. Rad etish asosi

5. Sifat ta'minoti

5.1. Sifat parametrlari

Xizmat ko'rsatish sifati taqdim etilayotgan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga muvofiq.

5.2. Sifatsiz xizmatga shikoyat

Shikoyat, o'rnatilgan tartibda statistika organlariga yozma murojaat orqali yoki Statistika agentligining rasmiy saytidagi qayta aloqa shakli orqali amalga oshiriladi.

**5.3.Statistika ma'lumotlarini taqdim etish bo'yicha
interaktiv xizmatini ko'rsatish sxemasi**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytiga bevosita murojaat etadi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Statistika agentligi	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining mahsulot turlari bo'yicha statistik ko'rsatkichlarini agentlik saytida yangilab boradi.	Doimiy
3-bosqich	Murojaatchi	"FOYDALI MA'LUMOTLAR" bo'limida "Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar"ga kirib qiziqtirayotgan sanoat statistikasi sohasini tanlaydi	O'z xohishiga ko'ra
4-bosqich	Murojaatchi	Tanlangan statistika sohasi bo'yicha jadval ma'lumotlarini web saytdagi interaktiv jadval asosida taqdim etiladi.	Real vaqt rejimida